



## DEVELOPING CREATIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

M. Suyunov<sup>1</sup>, Jabborova Gulruh Jabborovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Associate Professor of Navoi State Pedagogical Institute, <sup>2</sup> Master of Navoi State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5136404>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> July 2021  
Accepted: 20<sup>th</sup> July 2021  
Online: 25<sup>th</sup> July 2021

### KEY WORDS

elementary education,  
creativity, creative  
imagination, innovative  
methods, creativity,  
motivation, color image  
tools.

### ABSTRACT

*The article focuses on the development of creativity in primary school students. Emphasis is placed on the relevance and necessity of developing students' creativity in primary education practice, and ideas on what methods should be used in the classroom.*

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

M. Suyunov<sup>1</sup>, Jabborova Gulruh Jabborovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Navoiy Davlat Pedagogika Instituti dotsenti, <sup>2</sup> Navoiy Davlat Pedagogika Instituti magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-iyul 2021  
Ma'qullandi: 20-iyul 2021  
Chop etildi: 25-iyul 2021

### KALIT SO'ZLAR

boshlang'ich ta'lim,  
kreativlik, ijodiy tasavvur,  
innovatsion metodlar,  
ijodkorlik, motivatsiya,  
rang-tasvir vositalari.

### ANNOTATSIYA

*Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining kreativligini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishning dolzarbligi va zarurligiga e'tibor qaratilib, dars jarayonida qanday usullardan foydalanish lozimligi xususida fikrlar berilgan.*

Respublikamizda "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash", shu bilan birgalikda boshlang'ich ta'lim sifatini tubdan oshirish, bolalarni kichikligidanoq kitob o'qishga

qiziqtirish masalasi yuzasidan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham kreativ, ijodiy fikr laydigan va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv



va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'limda, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinni foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiena hamda sog'lom turmush asoslarini o'rganadilar.

Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jihati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama

fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik"dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish;

- o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun darsda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

-o'quvchilarga ijodiy fikrlashga doir biror topshiriq berish va natijalarini o'rganish, ularning ijodiy ishlarini o'rganish;

-o'quvchilarning qiziqqan mavzularini aniqlash va shu mavzuda suhbat o'tkazish, ularning fikrlarini bayon qilishlarida ijodiy yondashishlari uchun imkon beruvchi zarur shart-sharoit yaratish (suhbat individual yoki guruhli bo'lishi mumkin);

- dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va o'quvchilarning



bildirgan har bir fikrlarini inobatga olish;

-o'quvchilar ijodini o'rganish. Bunda o'quvchilarning ijodiy ishlari: insho, yozma ish, erkin mavzuda chizgan rasmlari va boshqalar muhim vositalar hisoblanadi;

- darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda turli qiziqarli didaktik o'yinlar va noan'anaviy usullardan foydalanib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, sinfdagi barcha o'quvchilarni mashg'ulotga qamrab olish.

Bugungi kunda boy tasavvurga ega bo'lgan insonda kreativlik, yaratuvchanlik, ijobiylik, keng fikrlilik, fantaziyaviylik va shunga o'xshash xislatlarni kuzatish mumkin. Qolaversa, boy rang-tasvir namunalari orqali o'quvchining ongiga kirib borish va shu orqali zarur bilimlarni berish yuqori samara berishi xorij tajribasidan ma'lum. Bolaning 6 yoki 7 yoshdan ta'lim olishga jalb qilinishini hisobga olsak, rasm kompozitsiyasiga asoslangan kitob orqali bolani zeriktirmay, ta'lim olishdan bezdirmay, ta'lim-tarbiyaga jalb qila olish zarur ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ayniqsa, 1- sinf o'quvchilariga matematika darslarida darslikda berilgan misol, masalalardan tashqari turli rasmlar boshqotirmalar ustida ishlash ularning izlanuvchanlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshishida yaxshi samara beradi. Bunday boshqotirmalardan ona tili, o'qish va boshqa darslarda bemalol foydalanish mumkin.

Biror qiziqarli hayotiy hodisa yoki multfilm qahramonlari muhokama qilinganda o'quvchilar birdan turli xildagi, atroflicha fikrlar bildirib boshlaydi. Shunday vaziyatlarda ular o'z aqliy imkoniyatlaridan

ko'p narsalarni bilishi ma'lum bo'lib qoladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: nega ular darsga oid mavzular yuzasidan gapirganlarida bunday ishtiyoq bilan so'zlamaydilar? Chunki multfilmlarni tomosha qilganlarida tasavvur yaqqol namoyon bo'ladi. Ularni qiziqtiruvchi tasviriy ifodalar, boy rang-tasvir namunalari, tasavvur qilish imkoniyati to'laligicha yoritiladi. Shularni hisobga olib, darsliklarda, dars jarayonida bolalarni qiziqtiradigan, ularni ijodiy tasavvurini rivojlantiradigan, boy rang-tasvir namunalariidan foydalanilgan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzular ko'proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarning turfa xilligi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo'ladi. o'quvchilarning ruhiy muvozanatdan chiqishi esa ularni ma'naviy kamolot sari yetaklash garovidir.

Boshqa aqliy vazifalar singari tasavvurlar ham bolaning yoshi bilan o'zgaradi. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda tasavvur funksiyasining faollashuvi kuzatiladi. Dastlab, qayta tiklash (erta yoshda ertakli tasvirlarni tasavvur qilish imkonini beradi), keyin esa ijodiy (buning natijasida asosan yangi tasvir yaratilgan) fantaziya shakllanishi uchun o'zlarining faol ishlarini hayolga bog'lashadi. Demak, rang-tasvir namunalari orqali bolalarning kreativligini rivojlantirish boshqa usullariga nisbatan yuqori samara beradi. Chunki tasvir orqali yetkazilishi mo'ljallangan bilimni yaqqol tasvirlash mumkin. Bola o'qiy olmasa-da rasm kompozitsiyalari orqali asosiy g'oyani anglab yetadi.

Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan turli innovatsion texnologiyalar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash



motivatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Dars jarayonida asosan “Aqliy hujum”, “O‘yla, izla, top”, “Baliq skleti”, “Nilufar gul” “Munozara”, kabi texnologiyalardan foydalanish bolalarda kreativlikni rivojlantirishda yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta‘lim darslarini kreativ g‘oyalar bilan tashkil qilish o‘quvchiga zavq berish bilan birga ijodiy tasavvurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boy tasavvurga ega bo‘lgan insonda ijodkorlik,

yaratuvchanlik, ijobiylik, keng fikrlilik, fantaziyaviylik va shunga o‘xshash xislatlarni kuzatish mumkin. Har bir kreator va ijodkor boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o‘quvchi va yoshlarning o‘ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qulaxmetova M. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. –T.: 2011
2. Mavlanova R A., Raxmonqulova N X. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. – T.: 2013
3. Ro‘ziyeva S M. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari. – T.: 2012
4. Asqarova O‘ va boshqalar. Pedagogika. – T.: 2004
5. Usmonboyeva M. To‘rayeva A. Kreativ pedagogika. – T.: 2016